



## KASBIY TA'LIM TASHKILOTLARI RAHBAR-XODIMLARINING BOSHQARUV FAOLIYATIGA QO'YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR

**Nodirov Jaxongir Muxamadjanovich**

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: jahongir78@umail.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17918808>

**Annotatsiya:** Rahvar shaxsi, innovatsion fikrlash va texnologik bilimlar, strategik rejalash va raqobatbardoshlik, kommunikatsion qobiliyatlar va liderlik, kasbiy rivojlanish, qonunchilik va normativ hujjatlarni bilish, diniy bilimlarga ega bo'lish va tolerantlik kabi masalalar keng yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Rahvar shaxsi, innovatsion fikrlash, texnologik bilimlar, strategik rejalash, raqobatbardoshlik, kommunikatsion qobiliyatlar, liderlik, kasbiy rivojlanish, huquqiy savodxonlik, diniy bilimlarga ega bo'lish, tolerantlik.

**Аннотация:** Широко освещаются такие вопросы, как лидерская личность, инновационное мышление и технологические знания, стратегическое планирование и конкурентоспособность, коммуникативные навыки и лидерство, профессиональное развитие, знание законодательства и нормативных актов, религиозные знания и толерантность.

**Ключевые слова:** Лидерская личность, инновационное мышление, технологические знания, стратегическое планирование, конкурентоспособность, коммуникативные навыки, лидерство, профессиональное развитие, правовая грамотность, религиозные знания, толерантность.

**Annotation:** Issues such as leadership personality, innovative thinking and technological knowledge, strategic planning and competitiveness, communication skills and leadership, professional development, knowledge of legislation and regulations, religious knowledge and tolerance are extensively covered.

**Key words:** Leadership personality, innovative thinking, technological knowledge, strategic planning, competitiveness, communication skills, leadership, professional development, legal literacy, religious knowledge, tolerance.

Kasbiy ta'lim tashkilotlarida rahbar shaxsi professional menejer sifatida namoyon bo'lishi zarur. Chunki, bugungi globallashuv sharoitida rahbar-xodimlardan ta'lim-tarbiya va ishlab chiqarish jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etish, ularning o'zaro integratsiyasini ta'minlash va ijtimoiy, iqtisodiy, moddiy,






texnik hamda inson resurslarini muvoffaqiyatli boshqarish bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmaga ega bo'lish talab etilmoqda.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ishlarini ham tizimli va izchil amalga oshirilishi lozim. Yuqoridagi vazifalarni bajarish uchun rahbar-xodimlarning yuqori intellektual salohiyat, yuksak axloqiy sifat, ruhiy va jismoniy salomatlik, madaniyat, xushyorlik va xayrixohlik va o'ziga ishonch kabilarga ega bo'lishi ham samarali boshqaruv uchun zaruriy shart hisoblanadi.

### Tahlillar va natijalar

Biz kasbiy ta'lim tashkilotlarida rahbar-xodimlarning boshqaruv faoliyatiga qo'yiladigan zamonaviy talablar (1-rasm) quyidagilardan iborat:

1. Innovatsion fikrlash va texnologik bilimlar.
2. Strategik rejalash va raqobatbardoshlik.
3. Kommunikatsion qobiliyatlar va liderlik.
4. Kasbiy rivojlanish.
5. Qonunchilik va normativ hujjatlarni bilish.
6. Diniy bilimlarga ega bo'lish va tolerantlik.



### 1-rasm. Rahbar-xodimlarning boshqaruv faoliyatiga qo'yiladigan zamonaviy talablar.

1. Innovatsion fikrlash va texnologik bilimlar.

Hozirgi davrda rahbar-xodimlar:

- boshqaruv yondashuvlari va raqamli texnologiyalardan foydalana olishi;
- innovatsion fikrlashi va muammolarga yechimlar taklif eta olishi;
- texnologik taraqqiyotga adaptatsiya va uni ta'lim jarayoniga tatbiq eta bilishi zarur.





## 2. Strategik rejalash va raqobatbardoshlik.

Rahbar-xodimlar ta'lim tashkilotining innovatsion faoliyatini bozor sharoitlarida moslashtirish uchun quyidagi:

- ta'lim tashkilotining rivojlanish strategik rejalarini ishlab chiqish va ijrosini ta'minlash;
- ta'lim tashkilotida ta'lim xizmatlari bo'yicha doimiy monitoringni yuritish;
- ta'limda raqobatbardoshlik va boshqaruv [4].
- bozor ehtiyojlarini tahlili asosida unga mos kadrlar tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozim.

## 3. Kommunikatsion qobiliyatlar va liderlik.

Samarali boshqaruv uchun rahbar-xodimlar quyidagi jihatlarni e'tiborga olishlari lozim:

- xodimlarni ilhomlantirish va ularda motivatsiya uyg'otish;
- samarali muloqot va axborot almashish tizimini tashkil etish;
- "jamoalar bilan ishlash ko'nikmasi" [2].


## 4. Kasbiy rivojlanish

Kasbiy ta'lim tashkilotlarida rahbar-xodimlar va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi natijasida ularning boshqaruv samaradorligi ortadi. Shu nuqtai-nazardan:

- rahbar-xodimlar va o'qituvchilar uchun maqsadli malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish;
- rahbar-xodimlar va o'qituvchilarining ilmiy faoliyatini rivojlantirish uchun xalqaro va milliy konferensiyalarda tezis va maqola bilan ishtirokini ta'minlash;
- o'z faoliyatini tahlil qilish (refleksiv yondashuv);
- o'z sohasidagi ilg'or tajribalarni o'rganish va amaliyotga tadbiiq etish lozim.

## 5. Qonunchilik va normativ hujjatlarni bilish

Ta'lim tashkiloti rahbar-xodimlari uchun ta'lim sohasidagi Qonun, qonun osti xujjatlari, me'yoriy-huquqiy hujjatlar va davlat tomonidan rahbarlarga qo'yilgan talablar bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lish muhim ahamiyatga ega. Bu kabi bilimlar rahbarga o'z faoliyatini belgilangan huquqiy me'yorlar asosida tashkil etish, davlat talablari va standartlariga mos ravishda qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Shuningdek, rahbarlarning huquqiy savodxonligi ta'lim-tarbiya jarayonlarini to'g'ri tashkil etish, pedagogik jamoa uchun qulay muhit yaratish, ish beruvchi tashkilotlar hamda huquq-tartibot idoralari bilan hamkorlik faoliyatlarida muhim hisoblanadi. Qonunlar va me'yoriy hujjatlarga asoslangan boshqaruv tizimi nafaqat tashkilot faoliyatining barqarorligini ta'minlaydi, balki sifatli ta'lim ko'rsatkichlariga erishishda ham asosiy vosita hisoblanadi.





## 6. Diniy bilimlarga ega bo'lish va tolerantlik

Kasbiy ta'lim tashkilotlaridagi rahbar-xodimlarning bugungi globallashuv sharoitida diniy bilimlardan xabardor bo'lishi va tolerantlik jamiyatimizning asosiy tashkil etuvchisi bo'lgan yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyat kab etadi. Bunda bu bilimlarni ta'lim jarayoniga samarali ravishda tadbiiq etish zarur. Diniy bilimlar nafaqat shaxsning ichki dunyosini boyitadi, balki ularni boshqarish va rahbarlik vazifalarida to'g'ri qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Diniy qadriyatlar insonni to'g'ri so'z, haqiqatparvar, mehribon, talabchan, odil va xolis bo'lishga chaqiradi, bu esa rahbar-xodimlarning ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashiga xizmat qiladi. Tolerantlik (lot. tolerantia — sabr-toqat), bag'rikenglik — o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, histuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan toqatli bo'lish. Hozirgi dunyoda tolerantlik kundalik hayotda, jamiyatda, iqtisodiy rivojlanishda, shuningdek, ish joyida o'ta muhim ahamiyat kasb etadi[3].

UNESCO tashkiloti tomonidan tolerantlik tushunchasiga quyidagicha rasmiy ta'rif berilgan. "Tolerantlik — bu boshqa odamlarning insoniy huquqlari va asosiy erkinliklarini tan olish va hurmat qilishdir".

"Tolerantlik jamiyatda turli xil e'tiqod, madaniyat va qarashlarga hurmat ko'rsatish va ularni qabul qilishni anglatadi. Bu so'z lotincha "tolerare" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "sabr qilish" yoki "Bardosh berish" ma'nosini beradi"[5].

Misol: Ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarni har xil madaniyatlarga nisbatan tolerantlik ruhida tarbiyalash muhimdir. Jamiyatda ijtimoiy barqarorlik tolerantlik darajasiga ham bog'liq bo'ladi.

Tolerantlikning amaliy ahamiyati Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan BMT Bosh Assambleyasining "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasini qabul qilishga qaratilgan tashabbuslaridan ham yaqqol namoyon bo'ladi [1].

Shuningdek, diniy bilimlar rahbar-xodimlarga ko'plab axloqiy dilemmalarga javob topish, murakkab vaziyatlarda xolisona yondashuvni tanlash va o'quvchilarga to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatishda qo'l keladi. Jamiyatda diniy diversifikatsiya mavjudligi sababli, rahbar-xodimlarning diniy bilimlarga ega bo'lishi dinlararo muhitda ham muloqotni osonlashtiradi va o'zaro hurmatni kuchaytiradi. Ta'lim tizimi, o'z navbatida, nafaqat bilimlarni, balki insoniy qadriyatlarni, madaniy tushunchalarni ham targ'ib etadi.

Bundan tashqari, rahbar-hodimlarning diniy bilimlarga ega bo'lishi ularga ta'lim tashkilotida kadrlar bilan ishlashda ham katta foyda keltiradi. Diniy ta'lim ko'pincha insonni bag'rikeng, sabr-toqatli va hurmatli bo'lishga o'rgatadi. Ta'lim





tashkiloti rahbarlarining diniy bilimlarga ega bo'lishi nafaqat diniy yoki axloqiy masala, balki ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan strategik bir qarordir. Bu, shubhasiz, ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini yaxshilash, kelajak avlodni har tomonlama to'g'ri tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi.

### **Xulosa**

Kasbiy ta'lim tashkilotlarida rahbar-xodimlarning yuqorida ta'kidlab o'tilgan talablarda belgilangan kompetentlik hamda sifat va fazilatlarga ega bo'lishi ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va muvoffaqiyatli boshqarishda muhim ahamiyat kasb etib, ta'lim va tarbiyaning sifat va samaradorligini oshiradi. Natijada yuqori intellektual salohiyat va yuksak axloqiy sifatlarga ega o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlashga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev SH.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T., 2021. 237 b.
2. A.K.Jamolov. Liderlik va innovatsion ko'nikmalarni shakllantirish strategiyalari. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. ISSN 2992-9024 (online) 2025, №2.
3. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar, T., 2001.
4. H.K. Hakimov. Ta'limda raqobatbardoshlik va boshqaruv. Ilm-fan xabarnomasi 2025.
5. <https://javoblar.com/tolerantlik-nima-turlari-va-mohiyati>

